ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi: milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DISLEKSIYA NEYROLINGVISTIK MUAMMO SIFATIDA

Xolnazarov Umid Erkinovich,
Termiz davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ma'lumki, zamonaviy o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, psixolingvistika, shuningdek, yangi soha sanalgan neyrolingvistika yo'nalishlarida tadqiqot olib borish dolzarblik kasb etmoqda. Chunonchi, neyrolingvistika (lot. neuron – nerv va lingua – til) – psixologiya fani sohasi, afaziyaning psixolingvistik jihatlarini o'rganadi. Neyrolingvistikaning fan sifatida vujudga kelishi, bir tomondan, neyropsixologiyaning, ikkinchi tomondan, lingvistika va psixolingvistikaning rivojlanishi bilan bog'langandir. Hozirgi zamon neyropsixologiyasida neyrolingvistika so'zlashga miyaning sistemali funksiyasi sifatida, afaziyaga esa sistemaning buzilishi sifatida qaraydi. Neyrolingvistikaning rivojlanishi psixolog A. R. Luriya (1902 – 1977) va uning shogirdlarining ilmiy ishlari bilan bog'liqdir. Chunonchi, hozirgi kunda neyrolingvistika (nevrologiya va tilshunoslikning tutashgan nuqtasi) psixolingvistika, neyropsixologiya, neyrofiziologiya, psixoakustika, kibernetika kabi oraliq fanlar g'oyalari va metodlaridan barakali oziqlanmoqda. Shunday qilib, insonning olamni belgilashtirish tabiatini kompleks ravishda o'rganishda neyrolingvistikaning bir tarmog'i sanaldan disleksiyaning o'rni alohida ajralib turadi. Xo'sh, avvalo, «disleksiya» nima va uning yuzaga kelishiga olib keluvchi qanday sabablar bor?

Darhaqiqat, til tizimining miyaning nutqiy xulq-atvor mexanizmi bilan bog'liq jarayoni mahsuli sanalgan «disleksiya» atamasi (qadimgi yunon. δυσλεξία – nutq buzilishi yoxud so'z, nutqni o'zlashtirishdagi qiyinchilik) – umumiy o'rganish qobiliyatini saqlab qolgan holda, aynan o'qish va yozish ko'nikmalarini egallash qobiliyatining buzilishi[1] bo'lib, ingliz tili tarjima lug'atida[2] harflar birikmalarini imloda fonemalar bilan bog'lash kabi, yozma tilni dekodlash va eshitish hamda ko'rish ma'lumotlarini integratsiyalashda qiyinchilik bilan bog'liq bo'lgan turli xil o'qish buzilishlaridan biri, shuningdek, o'qish, yozish va hisoblash sohalarining bir yoki bir nechtasida o'rganish qiyinchiliklarini keltirib chiqaradigan rivojlanish buzilishi, xalq tilida esa «so'z ko'rligi» demakdir. Ushbu fikrlarga asolangan holda aytish mumkinki, disleksiya faqatgina og'zaki nutqdagi buzilish emas, balki yozma nutqdagi buzilish muammolarini ham o'z ichiga olar ekan.

Tadqiqotchi R.I.Lalayeva disleksiyaga quyidagicha ta'rif beradi: «disleksiya – bu oliy psixik funksiyalarning shakllanmaganligi (buzilganligi) tufayli yuzaga keladigan va takrorlanuvchi xatolarda namoyon bo'ladigan o'qish jarayonining qisman xususiy buzilishidir». A.N.Kornyev esa disleksiyaga to'xtalib, «asosiy ko'rinishi o'qish ko'nikmasini egallashda turg'un va tanlangan qobiliyatsizlik bo'lgan holatlarni nazarda tutadi[3], ya'ni buning uchun yetarli darajadagi intellektual va nutqiy rivojlanish mavjud bo'lishi, eshitish va ko'rish analizatorlarida hech qanday buzilish kuzatilmasligi mumkinligi qayd etilgan. Bu esa disleksiya inson psixik funksiyalarining buzilishi tufayli ham kelib chiqadigan o'qish jarayonidagi buzilish ekanligidan darak beradi.

Izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki[4], tarixiy jihatdan, aksariyat Yevropa mamlakatlarida «disleksiya» tushunchasi yozma nutq: o'qish mahoratini o'zlashtirish, yozish mahoratini o'zlashtirish, savodxonlik muammolari, arifmetikani o'zlashtirish, harakatlar va ularning ketma-ketligining buzilishi va diqqatni jamlash bilan bog'liq barcha muammolarni o'z ichiga oladi. Rus logopedlari ushbu muammolarni bir-biri bilan bog'lamagan holda ko'rib chiqib, quyidagi: 1) disleksiya; 2) disgrafiya; 3) disorfografiya; 4) diskalkuliya; 5) dispraksiya; 6) diqqat va giperaktivlik yetishmasligi sindromlari tarzida tasniflashadi.

Biz yashayotgan bugungi axborot asri va raqamli texnologiyalar hukm surgan bir davrda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, avvalo, qilinadigan birinchi ishimiz «ta'lim-tarbiyaning asosi, poydevori sanalgan maktablarda ta'lim sifatini oshirmasdan, maktabni o'zgartirmasdan odamni, jami-

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Disleksiya
[2] https://www.dictionary.com/browse/dyslexia?trk=article-ssr-frontend-pulse_little-text-block
[3] Левонюк, А. Е. Психолингвистика : учеб.-метод. пособие / Брест гос. ун-т им. А. С. Пушкина. – Брест : БрГУ, 2023. – С. 107.
[4] https://uz.wikipedia.org/wiki/Disleksiya

yatni o'zgartira olmas»[1]ligimizni tushunmog'imiz kerak. Zero, Yangi O'zbekistonda eng muhim, ustuvor soha – ta'lim va eng hurmatli insonlar esa o'qituvchi va murabbiylar ekanligi milliy ta'lim tizimida ham o'z amaliy tasdig'ini topayotganligi quvonarli hol, albatta. Biroq, tadqiqotimiz doirasida maktab o'qituvchilari, jumladan, Termiz shahar maktablari o'qituvchilari bilan suhbat olib borish davomida ayrim o'quvchilar orasida o'qishdagi sustlik, agressivlik, aqliy zaiflik, axloqiy buzuqlik, dangasalik, o'ziga ishonchsizlik kabi – «disleksiya belgilari» ning kuzatilishi esa achinarli holatdir. Bu kabi salbiy oqibatlar, belgilar disleksiya neyrobiologik va genetik asosga ega bo'lgan tug'ma holatlarda ko'pincha kuzatilishini ko'rsatadi.

Disleksiya (o'qish qobiliyatining spesifik buzilishi) zamonaviy nevrologiya, psixologiya va tilshunoslikning eng murakkab va ko'p o'rganilgan muammolaridan biridir. Bu holat nafaqat o'qish va yozish ko'nikmalarining sekinlashishi yoki xatolari bilan cheklanmaydi, balki miya va til tizimining chuqur o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi neyrolingvistik buzilish sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda disleksiya «neyrobiologik asosga ega bo'lgan rivojlanish buzilishi»[2] deb ta'riflanadi. Unda o'qish qobiliyati intellekt, ko'rish va eshitish funksiyalari normal bo'lishiga qaramay pasayadi. Disleksiyaning ilmiy tarixi XIX asr oxiriga taqaladi. 1896-yilda britaniyalik shifokor Pringle Morgan birinchi marta «o'qish ko'rligi» (word-blindness) atamasini qo'llagan. Keyinchalik, 1920–1930-yillarda Samuel Orton disleksiyani miya yarim sharlarining asimmetriyasi va neyron migratsiyasi buzilishi bilan bog'lagan. Ammo zamonaviy tushuncha 1970-yillarda Haskins laboratoriyasida (AQSh) fonologik defitsit gipotezasi shakllanishi bilan bog'liq. Bu gipoteza disleksiyani fonologik qayta ishlashdagi buzilish sifatida talqin qilgan. Bu nazariya bugungi kunda eng kuchli dalillarga ega nazariya hisoblanadi[3]. Disleksiyaning tarqalishi dunyo bo'yicha 5–20% ni tashkil etadi va bu ko'rsatkich tilning grafematik tizimiga bog'liq. Masalan, ingliz tilidagi chuqur ortografiya (harf va tovush o'rtasidagi nomutanosiblik) disleksiyani yanada og'irlashtirsa, italyan yoki fin tilidagi yengil ortografiya holatni yengillashtiradi. O'zbek tilida (lotin yozuviga o'tish davrida) disleksiya tadqiqotlari hali yetarli emas, ammo turkiy tillar uchun xos bo'lgan vokal garmoniyasi va morfologik murakkablik disleksiyaning lingvistik namoyon bo'lishini o'zgartirishi mumkin. Shunga qaramay, asosiy neyrolingvistik mexanizmlar barcha tillarda bir xil bo'lib qoladi.

Neyrolingvistik nuqtayi nazardan disleksiya miyaning chap yarim sharidagi til tarmoqlarining disfunksiyasi bilan bog'liq. Asosiy hududlar:

a) chap temporal-parietal mintaqa (Wernicke maydoni yaqinida) – fonologik qayta ishlash;

b) chap occipito-temporal mintaqa (fusiform gyrus, «visual word form area») – vizual so'z shakllarini tanish;

c) chap inferior frontal gyrus (Broca maydoni) – artikulyatsiya va fonologik chiqarish.

Bu hududlar o'rtasidagi oq modda yo'llari (arcuate fasciculus) buzilishi disleksiyaning asosiy neyrobiologik belgilaridan biridir. B.Boets[4] va hamkorlari o'tkazgan tadqiqotda disleksiyali kattalarda fonetik vakilliklar saqlangan, ammo ularni frontal hududlarga yetkazish buzilganligi aniqlangan. Disleksiyaning etiologiyasi multifaktorial: genetik, neyrobiologik va muhit omillari o'zaro ta'sir qiladi. Genetik tadqiqotlar (masalan, DYX1C1, KIAA0319, DCDC2 genlari) neyron migratsiyasi va oq modda rivojlanishini buzishi mumkinligini ko'rsatadi. Neyrovizualizatsiya (fMRI, DTI) tadqiqotlari disleksiyali bolalarda o'qishdan oldin ham chap yarim shardagi o'zgarishlarni aniqlaydi, bu holatni «konstitutsional» (tug'ma) buzilish sifatida talqin qiladi[5].

Ilmiy jihatdan aytish lozimki, disleksiya «kasallik» emas, balki neyrobiologik o'ziga xoslikdir. Ba'zi olimlar (Protopapas A., 2018) uni «oddiy individual farqlarning ekstremal ko'rinishi» deb hisoblaydi. Shunga qaramay, uning o'qish va ijtimoiy moslashuvga ta'siri sezilarli bo'lib, erta diagnostika va interventsiya muhim ahamiyatga ega.

Disleksiyani neyrolingvistik muammo sifatida tushunish uchun avvalo o'qish jarayonining neyrobiologik asoslarini chuqur tahlil qilish zarur. Zamonaviy nevrolingvistika o'qishni miyaning chap yarim sharidagi murakkab neyron tarmoqlarining faoliyati natijasi deb hisoblaydi. Bu tarmoqlar ikki asosiy yo'nalishga bo'linadi: dorsal (orqa) yo'l va ventral (old) yo'l. Dorsal yo'l fonologik qayta ishlash va grafema-fonema konvertatsiyasiga mas'ul bo'lib, chap temporal-parietal mintaqa (superior temporal gyrus va inferior parietal lobule) va inferior frontal gyrus (Broca maydoni) orqali o'tadi. Ventral yo'l esa vizual so'z shakllarini tanish va leksik-semantik qayta ishlashga xizmat qiladi, bu yerda *fusiform gyrus* – yuz va obyektlarni tanuvchi qism, (visual word form area – VWFA)

[1] https://president.uz/oz/lists/view/2820

[2] Peterson R.L., Pennington B.F. Developmental dyslexia // Annual Review of Clinical Psychology. – Boston, 2015. – B. 283–307.

[3] Ramus F. Neuroimaging sheds new light on the phonological deficit in dyslexia // Trends in Cognitive Sciences. 2014. Vol. 18. №6. – P. 274–275. https://doi.org/10.1016/j.tics.2014.04.003.

[4] Boets B. et al. Intact but less accessible phonetic representations in adults with dyslexia // Science. 2013. Vol. 342. – P. 1251–1254. https://doi.org/10.1126/science.1244333.

[5] Norton E.S. et al. Neurobiology of dyslexia // Current Opinion in Neurobiology. 2015. Vol. 30. – P. 73–81.

markaziy o'rin tutadi[1]. Disleksiyaning markaziy neyrolingvistik mexanizmi – fonologik defitsit gipotezasi bo'lib, u o'qish qiyinligini fonologik vakilliklar va fonologik qayta ishlashdagi buzilish bilan bog'laydi. Bu gipoteza 1980-yillardan boshlab ilgari surilgan va bugungi kunda eng kuchli empirik dalillarga ega nazariya hisoblanadi. A.Castles va N.Friedmann[2] o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, disleksiyali shaxslar nutq tovushlarini ajratish, fonologik xotirada saqlash va ularni grafema bilan bog'lashda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa o'qishning asosiy buzilishiga olib keladi. Fonologik defitsitning neyrobiologik asosi chap yarim shardagi temporal-parietal mintaqaning gipofunksiyasida yotadi. fMRI tadqiqotlari disleksiyali bolalar va kattalarda o'qish vazifasi bajarilayotganda bu hududning faolligi sezilarli darajada pasayganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, oksipito-temporal mintaqada vizual so'z shakllarini avtomatik tanish jarayoni ham buziladi. F.Richlan[3] meta-tahlilida disleksiyali o'quvchilarda chap yarim shardagi o'qish tarmoqlarining umumiy gipofunksiyasi aniqlangan: oksipito-temporal, temporo-parietal va inferior frontal korteksla o'rtasidagi bog'lanish zaiflashgan.

Disleksiyaning neyrolingvistik mexanizmlarini tushunishda dual-route cascaded (DRC) modeli muhim o'rin tutadi. Bu model o'qishni ikki yo'l orqali – leksik (butun so'zni tanish) va subleksik (grafema-fonema konvertatsiyasi) – tushuntiradi. Disleksiyada asosan subleksik yo'l buziladi, natijada pseudoso'zlar va yangi so'zlarni o'qish qiyinlashadi. S.Z.Rapcsak[4] va hamkorlari dual-route modelining disleksiyada qanchalik aniq bashorat qilishini ko'rsatgan tadqiqotlarida bu model nafaqat o'qish, balki yozish buzilishlarini ham yaxshi izohlaydi deb hisoblashadi. Kross-lingvistik tadqiqotlar disleksiyaning neyrolingvistik mexanizmlari universal ekanligini, ammo ortografiya shaffofligiga qarab namoyon bo'lish darajasi o'zgarishini tasdiqlaydi. O'zbek tili kabi nisbatan shaffof (transparent) ortografiyalarda disleksiya ko'proq o'qish tezligi va fonologik xotira bilan bog'liq muammolar sifatida namoyon bo'lsa, ingliz tili kabi chuqur (opaque) ortografiyalarda aniqlik va fonologik dekodlash qiyinchiliklari kuchliroq bo'ladi. V.Diamanti[5] va hamkorlari ingliz va grek tillaridagi disleksiyani solishtirgan tadqiqotida disleksiyali bolalarda fonologik defitsit universal bo'lsa-da, o'qish aniqligi ingliz tilida, tezlik esa ikkala tilda ham buzilganligini aniqlagan. Zamonaviy tadqiqotlar[6] disleksiyani faqat fonologik defitsit bilan cheklab qo'ymasdan, vizual-miyaviy va auditoriy jarayonlarning integratsiyasi buzilishi sifatida ham ko'rib chiqmoqda. Masalan, temporal prosessing defisit gipotezasi (auditoriy va vizual vaqtinchalik qayta ishlashdagi muammo) fonologik defitsit bilan birgalikda ishlaydi. Ammo meta-tahlillar fonologik defitsitning asosiy rolini saqlab qolgan holda, boshqa mexanizmlarni qo'shimcha omil sifatida qabul qiladi.

Disleksiyaning neyrolingvistik mexanizmlarini chuqur anglash uchun funksional magnit-rezonans tomografiya (fMRI), diffuzion tensor tasvirlash (DTI) va dam olish holatidagi funksional magnit-rezonans tomografiya kabi neyrovizualizatsiya usullari hamda genetika tadqiqotlari muhim empirik dalillar beradi. Ushbu usullar miyaning funksional va tuzilish o'zgarishlarini, shuningdek, genetik omillarning neyrobiologik namoyon bo'lishini to'g'ridan-to'g'ri kuzatish imkonini yaratadi. Zamonaviy tadqiqotlar disleksiyani neyrobiologik asosga ega rivojlanish buzilishi sifatida baholaydi.

Funksional magnit-rezonans tomografiya disleksiyada o'qish jarayonidagi miya faolligini o'rganishning asosiy vositasidir. Meta-tahlillar disleksiyaga chalingan shaxslarda chap yarim shardagi o'qish tarmoqlarining faolligi pasayganini doimiy ravishda ko'rsatadi. Masalan, J.Wang[7] va hamkorlari 2025-yilda o'tkazgan meta-tahlilda (12 ta topshiriq asosidagi va 7 ta dam olish holatidagi funksional magnit-rezonans tomografiya tadqiqoti, jami 346 disleksiyali va 377 nazorat guruhidagi ishtirokchi) disleksiyada chap temporal-parietal hamda oksipito-temporal

[1] Richlan F. Developmental dyslexia: dysfunction of a left hemisphere reading network // Frontiers in Human Neuroscience. 2012. Vol. 6. Article 120. https://doi.org/10.3389/fnhum.2012.00120.

[2] Castles A., Friedmann N. Developmental Dyslexia and the Phonological Deficit Hypothesis // Mind and Language. (Richlan F. Functional neuroanatomy of developmental dyslexia // Frontiers in Human Neuroscience. 2014. Vol. 8. Article 347. https://doi.org/10.3389/fnhum.2014.00347).2014. Vol. 29. №3. – P. 270–285. https://doi.org/10.1111/mila.12050.

[3] Richlan F. Functional neuroanatomy of developmental dyslexia // Frontiers in Human Neuroscience. 2014. Vol. 8. Article 347. https://doi.org/10.3389/fnhum.2014.00347.

[4] (Rapcsak S.Z. et al. Do Dual-Route Models Accurately Predict Reading and Spelling Performance in Individuals with Acquired Alexia and Agraphia? // Neuropsychologia. 2007. Vol. 45. №11. P. 2519–2524. https://doi.org/10.1016/j.neuropsychologia.2007.03.019).

[5] Diamanti V. et al. Dyslexia Profiles Across Orthographies Differing in Transparency: An Evaluation of Theoretical Predictions Contrasting English and Greek // Scientific Studies of Reading. 2018. Vol. 22. №1. P. 7–25. https://doi.org/10.1080/10888438.2017.1338291.

[6] Zoccolotti P. et al. The Case of the Phonological Deficit Theory of Dyslexia: A Meta-Analytic Review // Brain Sciences. 2022. Vol. 12. №4. Article 425. https://doi.org/10.3390/brainsci12040425.

[7] Wang J. et al. Functional Connectivity Alterations in Developmental Dyslexia: A Meta-Analysis of Task-Based and Resting-State fMRI Studies // Developmental Science. 2025. https://doi.org/10.1111/desc.70093.

mintaqalardagi funksional bog'lanish zaiflashgani aniqlangan.

F.Richlan[1]ning 2014-yildagi meta-tahlili ham shunga yaqin natijalarni tasdiqlaydi: disleksiyaga chalingan o'quvchilarda chap pastki frontal girus, yuqori temporal girus va fusiform girus (vizual so'z shakli maydoni) hududlarida faollik sezilarli darajada pasaygan. Bu hududlar fonologik dekodlash va vizual so'z tanish uchun mas'uldir.

Diffuzion tensor tasvirlash oq modda integratsiyasini o'rganadi. M.Vandermosten[2] va hamkorlari 2016-yilda o'qishni o'rganishdan oldingi bolalarda o'tkazgan meta-tahlilda disleksiya xavfi yuqori bo'lgan bolalarda chap yoy shaklidagi oq modda yo'li va temporal-parietal oq modda yo'llarining zaiflashgani aniqlangan. Bu o'zgarishlar o'qishni o'rganishdan oldin ham kuzatiladi, ya'ni ular tug'ma xususiyatga ega degan xulosa qilish mumkin. Disleksiyaning tug'ma xususiyatini tasdiqlovchi eng kuchli dalillar o'qishni o'rganishdan oldingi bolalardagi tadqiqotlardan kelib chiqadi. O.Ozernov-Palchik[3] va hamkorlari 2016-yilda o'qishni o'rganishdan oldingi bolalarda funksional magnit-rezonans tomografiya va diffuzion tensor tasvirlash yordamida o'qishni bashorat qilish imkoniyatini ko'rsatgan. Ular disleksiya xavfi yuqori bo'lgan bolalarda chap yarim shardagi funksional bog'lanish zaifligini aniqlagan.

Neyrovizualizatsiya va genetika tadqiqotlari disleksiyani neyrobiologik asosga ega, tug'ma va murakkab omillarga bog'liq holat sifatida tasdiqlaydi. Chap yarim shardagi o'qish tarmoqlarining faolligi pasayishi, oq modda integratsiyasining buzilishi hamda DCDC2, KIAA0319 kabi genlarning ta'siri asosiy biologik belgilar hisoblanadi. Bu dalillar erta aniqlash va aralashuv uchun mustahkam asos yaratadi.

Disleksiyani neyrolingvistik muammo sifatida chuqur tahlil qilgandan so'ng, uning amaliy tomoniga – klinik aniqlash jarayoniga o'tish lozim. Men bu jarayonni oddiy «tekshiruv» deb emas, balki bola yoki katta kishining butun neyrolingvistik tizimini chuqur o'rganish deb hisoblayman. Disleksiya tashxisi qo'yishda birinchi va eng muhim qadam – bu holatni boshqa sabablardan (ko'rish buzilishi, eshitish muammosi, umumiy intellekt pasayishi yoki psixologik travma) aniq farqlashdir. Farqlashsiz tashxis nafaqat noto'g'ri, balki bolaga zarar yetkazishi mumkin.

Klinik aniqlash jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo'lishi kerak. Birinchi bosqich – batafsil tarixiy ma'lumot yig'ish. Ota-ona yoki o'qituvchidan bola o'qishni qanchalik kech o'rganganini, harflar va tovushlarni chalkashtirish holatlari bor-yo'qligini, oilada shunga o'xshash muammolar bo'lgan-bo'lmaganini aniqlash zarur. Ikkinchi bosqich – standart psixologik va lingvistik testlar. O'zbek tilida ishlab chiqilgan o'qish tezligi, aniqligi va tushunish ko'rsatkichlarini o'lchaydigan testlar (masalan, «O'qishni baholash to'plami») ishlatilishi lozim. Uchinchi bosqich – neyropsixologik baholash: fonologik xotira, fonologik ajratish va vizual-verbal bog'lanishni tekshirish.

Disleksiya – bu bolaning aql-zakovati va o'qishga bo'lgan qiziqishidan qat'iy nazar, o'qish ko'nikmalarini o'zlashtirishda yuzaga keladigan o'ziga xos neyrologik holat. Bu «savodsizlik» yoki «dangasalik» emas, balki miyaning yozma matnni qayta ishlashdagi o'ziga xosligi hisoblanadi. Quyida Termiz shahar maktab o'quvchilari uchraydigan disleksiya belgilari va uni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar bilan tashib chiqamiz. Jumladan, tadqiqotimiz doirasida Termiz shahri maktablaridagi 6-sinfdan 11-sinfgacha bo'lgan 18 ta o'quvchilarida kuzatilgan, biz disleksik belgini yuzaga keltirgan deb hisoblagan tug'ma bo'lgan (epilepsiya oqibatidagi shaxsiyat o'zgarishi; bosh miya kasalligi, shikastlanishi va disfunksiyasi sababli yuzaga kelgan shaxsiyat va xulq-atvor buzilishi; distenziya sindromi tashxisi; oyoqlarning vagusli difarmatsiyasi surunkali kamqonlik darajasi; o'smirlar epifiziolizi; bolalar dislegiya shakli; ko'plamchi exinokok; gipos; tug'ma nogiron (ham kar, ham soqov) va tug'ma bo'lmagan, ya'ni orttirilgan (avariyadan so'ng; oyoq singandan keyin; oiladagi muhit sababli xulq-atvordagi buzilish; suyak yemirilishi; protes oyog' mavjud) holatlar natijasida o'qish, yozish, tovushlarni farqlay olmaslik va diqqat, xotira bilan bog'liq salbiy holatlar yuzaga kelganligini guvohi bo'lamiz.

Kuzatishimiz bo'yicha, disleksiyani aniqlashda eng muhim narsa – bu «erta signal»larni o'tkazib yubormaslik. Bolaning 5-6 yoshida o'qishga tayyorgarlik darajasini baholash orqali disleksiya xavfini oldindan bashorat qilish mumkin. Agar bola harflarni chalkashtirsa, tovushlarni ajrata olmasa yoki yozuvda doimiy xatolar qilsa, bu allaqachon signal. Ammo O'zbekistonda bu masalaga yetarli e'tibor berilmayapti. Ko'plab maktablarda disleksiya «dangasalik» yoki «o'qituvchi aybi» deb baholanadi. Bu noto'g'ri yondashuv. Menimcha, har bir maktabda maxsus «o'qishni baholash markazi» bo'lishi kerak, u yerda bolalar 1-sinfdan boshlab skriningdan o'tishi lozim.

[1] Richlan F. Functional neuroanatomy of developmental dyslexia // Frontiers in Human Neuroscience. 2014. Vol. 8. Article 347. https://doi.org/10.3389/fnhum.2014.00347.

[2] Vandermosten M. et al. Integrating MRI brain imaging studies of pre-reading children with current theories of developmental dyslexia: a review and quantitative meta-analysis // NeuroImage: Clinical. 2016. Vol. 12. P. 123–134.

[3] Ozernov-Palchik O., Gaab N. Tackling the "dyslexia paradox": Reading brain and behavior for early markers of developmental dyslexia. // Wiley Interdisciplinary Reviews: Cognitive Science, 2016. Volume:7(2), 156–176. https://doi.org/10.1002/wcs.1383

Differensial diagnostika masalasiga kelsak, disleksiyani boshqa holatlardan farqlash juda nozik ish. Masalan, umumiy intellekt pasayishi (intellektual yetishmovchilik) bilan disleksiyani farqlash uchun bolaning og'zaki nutqini, mantiqiy fikrlashini va boshqa intellektual ko'nikmalarini alohida tekshirish kerak. Disleksiyada intellekt odatda normal yoki yuqori bo'ladi. Yana bir muhim farq – ko'rish yoki eshitish buzilishlari. Ko'z shifokori va eshitish mutaxassisi bilan hamkorlikda tekshiruv o'tkazmasdan disleksiya tashxisi qo'yish mumkin emas. Ba'zan disleksiya va diqqat yetishmovchiligi giperaktivlik buzilishi (DYGB) birga keladi. Bunday holatda ikkala muammoni ham bir vaqtda aniqlash va davolash kerak.

O'zbekiston sharoitida disleksiya bilan bog'liq eng katta muammo – bu diagnostika infratuzilmasining zaifligi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda disleksiyani professional darajada aniqlaydigan markazlar juda kam. Ko'pchilik oilalar bolalarini «oddiy o'qituvchi»ga yoki psixologga olib boradi, ammo ularning ko'pchiligi neyrolingvistik buzilishlarni farqlay olmaydi. Natijada, bolalar «dangasa», «yaramas» yoki «o'qishni istamaydi» degan tamg'a bilan yashaydi. Bu tamg'a bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotadi va kelajakdagi muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Demak, disleksiyani «kasallik» deb emas, balki miya ishining o'ziga xos usuli deb qarash kerak. Disleksiyaga chalingan bolalar ko'pincha uch o'lchovli fikrlash, ijodkorlik va muammolarni yechishda kuchli bo'ladi. Ularning miyasi oddiy o'qish yo'lidan farqli yo'llar bilan ishlaydi. Shuning uchun tashxis qo'yish bilan birga, bolaning kuchli tomonlarini ham ochib berish lozim. Masalan, agar bola vizual fikrlashda kuchli bo'lsa, o'qishni vizual yordamlar (rasmlar, sxemalar, videolar) orqali o'rgatish samaraliroq bo'ladi.

Mamlakatimiz uchun eng muhim vazifa – milliy diagnostika protokollarini ishlab chiqish. O'zbek tili lotin yozuviga o'tganligi sababli, disleksiya namoyon bo'lishi boshqa tillardan farq qilishi mumkin. Harflar o'xshashligi (masalan, «o» va «a», «g» va «q») va tovushlarning murakkabligi o'qish qiyinligini kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun O'zbekiston olimlari va mutaxassislarining birgalikdagi ishi orqali o'zbek tiliga mos diagnostika vositalarini yaratish zarur.

Kuzatishlarimizga ko'ra, disleksiya – bu inson miyasining xilma-xilligining yorqin namunasidir. U kasallik emas, balki miya qanday qilib ma'lumotni qayta ishlayotganining o'ziga xos usuli. Disleksiyaga chalingan millionlab odamlar orasidan juda mashhur kishilar chiqqan. Masalan, Leonardo da Vinchi, Albert Einstein, Uolt Disney, Stiv Jobs va boshqalar. Demak, disleksiya – bu zaiflik emas, balki boshqa ko'rinishdagi qobiliyat deyish mumkin. Mening asosiy xulosam shuki, disleksiyani faqat «o'qish muammosi» deb qarash noto'g'ri. Bu – butun neyrolingvistik tizimning o'ziga xos ishlashi. Fonologik yetishmovchilik, vizual so'z tanish qiyinligi va miya yarim sharlari o'rtasidagi bog'lanish zaifligi – bu holatning asosiy belgilari. Ammo eng muhimi, disleksiya erta aniqlansa, to'g'ri yondashuv bilan bolaning hayotini butunlay o'zgartirish mumkin. Menimcha, har bir bola o'z miyasining «dasturiy ta'minoti»ga mos keladigan o'quv usulini topishi kerak.

Biz disleksiyaga nisbatan yangicha munosabatni shakllantirishimiz kerak. Hozirgi vaqtda ko'plab oilalar va o'qituvchilar bu muammoni «dangasalik» deb hisoblaydi. Bu noto'g'ri. Bizga milliy darajada «Disleksiyani erta aniqlash va qo'llab-quvvatlash dasturi» kerak. Bu dastur maktabgacha ta'limdan boshlab har bir bolani skriningdan o'tkazishni, maxsus o'qituvchilar tayyorlashni va ota-onalarni o'qitishni o'z ichiga olishi lozim. Zamonaviy texnologiyalar (masalan, sun'iy intellekt asosidagi o'qish yordamchi dasturlari) disleksiyaga chalingan bolalarga katta yordam berishi mumkin. O'zbek tilida ishlab chiqiladigan maxsus ilovalar, audio-kitoblar va vizual o'quv materiallari bu muammoni ancha yengillashtiradi. Bundan tashqari, miya plastisiyasi (o'zgaruvchanligi) juda kuchli. To'g'ri, interventsiya orqali disleksiyali bolaning o'qish ko'nikmasini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Mening shaxsiy qarashim bo'yicha, disleksiyani «muammo» deb emas, balki «xilma-xillik» deb qarash kerak. Jamiyatimizda har xil miya tuzilishiga ega odamlarni qabul qilish madaniyatini shakllantirish lozim. Maktablarda «har bir bola o'z yo'li bilan o'qiydi» degan tamoyilni joriy etish, o'qituvchilarni maxsus tayyorlash va oilalarni qo'llab-quvvatlash – bu yo'lning boshlanishi. Agar biz bugun bu masalaga e'tibor bersak, 10-15 yildan keyin O'zbekistonda disleksiyaga chalingan bolalar nafaqat o'qishni o'rganadi, balki o'z kuchli tomonlarini rivojlantirib, jamiyatga katta hissa qo'shadi.

Rezyume. Ushbu maqolada disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida atroflicha tahlil qilinadi. Disleksiya o'qish va yozish ko'nikmalarining intellekt, ko'rish va eshitish funksiyalari normal bo'lishiga qaramay buzilishi bilan bog'liq disleksiyaning neyrobiologik asoslari, xususan, miyaning chap yarim sharidagi oksipito-temporal (fusiform gyrus – Visual Word Form Area), temporal-parietal va inferior frontal (Broca) mintaqalari o'rtasidagi funksional va struktural buzilishlar yoritilgan. Fonologik defitsit gipotezasi asosiy nazariya sifatida ko'rib chiqilib, neyrovizualizatsiya usullari (fMRI, DTI) orqali olingan zamonaviy ilmiy dalillar tahlil qilingan.

Resume. This article provides a comprehensive analysis of dyslexia as a neurolinguistic problem. Dyslexia is associated with impaired reading and writing skills despite normal intelligence, vision, and hearing functions. The neurobiological basis of dyslexia is highlighted, particularly the functional and structural impairments between the occipito-temporal (fusiform gyrus – Visual Word Form Area), temporo-parietal, and inferior frontal (Broca) regions of the left hemisphere of the brain. The phonological deficit hypothesis is considered as the main theory, and modern scientific evidence obtained through neuroimaging methods (fMRI, DTI) is analyzed.

Резюме. В данной статье всесторонне анализируется дислексия как нейролингвистическая проблема. Дислексия связана с нарушением навыков чтения и письма, несмотря на нормальный интеллект, зрительные и слуховые функции. Освещены нейробиологические основы дислексии, в частности функциональные и структурные нарушения между окципито-темпоральной (веретенообразная извилина – зрительная зона словоформы), темпоро-париетальной и нижней лобной (зона Брока) областями левого полушария мозга. Гипотеза фонологического дефицита рассматривается в качестве основной теории, а также анализируются современные научные данные, полученные с помощью методов нейровизуализации (фМРТ, ДТИ).